



Vatan himoyachilari kuni: Milliy qahramonlik tarixi va

Vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning strategik ahamiyati

Mamatxonova Ruxshona Ravshanovna

TDYU huzuridagi Namangan viloyati akademik

litseyi 1-bosqich talabasi 104-guruh o'quvchisi

[Tel:+998-91-747-66-16](tel:+998-91-747-66-16)

E-mail: ruxwanaravwanovna@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola 14-yanvar – Vatan himoyachilari kunining tarixi va zamonaviy O'zbekiston Qurolli Kuchlari faoliyati orqali milliy xavfsizlikning strategik jihatlarini tahlil qiladi. Vatan himoyachilari bayramining tarixiy ildizlari va uning ijtimoiy ahamiyati ko'rib chiqilgan. Shuningdek, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning zamonaviy usullari, Qurolli Kuchlarning modernizatsiya jarayonlari va harbiy xizmatning yosh avlod tarbiyasidagi o'rni ilmiy yondashuv asosida yoritilgan va Vatan himoyachilari kunining tarixiy ildizlari, Qurolli Kuchlar faoliyatining hozirgi holati, yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlashdagi tarbiyaviy ishlar va ularning jamiyatdagi o'rni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Vatan Himoyachilari kuni, Qurolli Kuchlar, milliy xavfsizlik, harbiy islohotlar, vatanparvarlik, yosh avlod tarbiyasi, harbiy-ta'lim tizimi, jasorat, fidoyilik.

Абстракт: В данной научной статье анализируются стратегические аспекты национальной безопасности через историю 14 января – Дня защитника Отечества и деятельности современных Вооружённых Сил Узбекистана. Рассмотрены исторические корни праздника Защитника Отечества и его социальная значимость. Также на основе научного подхода и исторических корней освещаются современные



методы воспитания молодежи в духе патриотизма, процессы модернизации Вооруженных Сил и роль военной службы в воспитании молодого поколения. Анализируется День Отечества, современное состояние Вооружённых Сил, воспитательная работа по подготовке молодёжи к военной службе и её роль в обществе.

Ключевые слова: День защитника Отечества, Вооруженные Силы, национальная безопасность, военные реформы, патриотизм, воспитание молодого поколения, система военного образования, мужество, самоотверженность.

Abstract: This scientific article analyzes the strategic aspects of national security through the history of January 14 – Defender of the Fatherland Day and the activities of the modern Armed Forces of Uzbekistan. The historical roots of the Defender of the Fatherland holiday and its social significance are considered. Additionally, modern methods of educating young people in the spirit of patriotism, the modernization processes of the Armed Forces, and the role of military service in the education of the younger generation are covered based on a scientific approach. The historical roots of Defender of the Fatherland Day, the current state of the Armed Forces, educational efforts in preparing young people for military service, and their role in society are analyzed.

Key words: Defender of the Fatherland Day, Armed Forces, national security, military reforms, patriotism, education of the young generation, military education system, courage, selflessness.

Kirish. O'zbekiston Respublikasini himoya qilish O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburdirlar.



(O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi 64-moddasi)

Jahonga ne-ne betakror alloma-yu shoirlarni yetishtirib bergan xalqimiz o'zining mashaqqatlarga to'la tarixi davomida benazir sarkardalarni ham voyaga yetkazdi. Yurtimizni bosqinchilardan muhofaza qilish kabi olijanob maqsad yo'lida mardonavor qo'shinlar shakllandi. Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik singari jasur lashkarboshilarning nomlari minnatdor xalqimiz yuragidan abadiy joy oldi. Ayniqsa, dunyoda birinchi muntazam armiya tuzgan Sohibqiron bobomiz Amir Temurning harbiy dahosi yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu zotning harb ilmidagi betakror zakovati hanuzgacha jahon sarkardalari uchun saboq maktabi bo'lib kelmoqda.

“Bugun, mana shu shonli bayram kunida buyuk davlat va siyosat arbobi, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti, muhtaram Islom Abdug'anievich Karimovning yorqin xotirasiga barchamiz yana bir bor hurmat bajo keltiramiz. O'tgan 25 yil davomida Qurolli Kuchlarimizni barpo etish yo'lida qo'lga kiritgan beqiyos yutuqlarimiz aziz Yurtboshimizning nomi bilan chambarchas bog'liq ekanini chuqur minnatdorchilik bilan esga olamiz. O'zbekiston mustaqillikka erishgan birinchi kunlarda aynan Islom Abdug'anievich namoyon etgan printsiptial pozitsiya, siyosiy iroda va azmu shijoat tufayli milliy armiyamizga asos solindi. 1992 yil 14 yanvarda yurtimiz hududida joylashgan barcha harbiy tuzilmalar O'zbekiston Respublikasining huquqiy tasarrufiga o'tkazildi. Mana, 25 yildirki, ana shu tarixiy kun Qurolli Kuchlarimiz poydevori qo'yilgan, istiqlolimiz solnomasiga oltin harflar bilan yozilgan buyuk sana sifatida bayram qilinmoqda.

Birinchi Prezidentimiz o'sha og'ir yillarda “O'zining buyuk tarixi va ajdodlariga munosib voris bo'lgan xalqimiz mamlakat xavfsizligini ta'minlashga qodir armiyani yarata oladi”, deb katta ishonch bilan aytgan edilar.

Bugungi kunda ana shu ulkan ishonchga har tomonlama loyiq bo'lgan Qurolli Kuchlarimiz tashkil etilganini barchamiz ko'rib turibmiz.



Haqiqatan ham, tarixan qisqa muddatda mamlakatimiz mustaqilligi, hududiy yaxlitligi, chegaralarimiz daxlsizligini, xalqimizning tinch va osoyishta hayotini ishonchli himoya qilishga qodir bo'lgan milliy armiya barpo etildi, deb g'urur va iftixor bilan aytishga bugun barcha asoslarimiz bor.

(O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 25 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga bayram tabrigidan)

Avvalo biz tarixan bu ulug' kunni bilishimiz va qanchalik yosh avlod o'rnak olyapti shuni tahlil qila bilishimiz kerak.

1. Vatan Himoyachilari Kunining Tarixi va Ahamiyati:

1992-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "O'zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlarini tashkil etish to'g'risida"gi farmon qabul qilindi. Ushbu farmon, mamlakatimizning mudofaa tizimini mustahkamlash va milliy xavfsizlikni ta'minlashda katta ahamiyatga ega bo'ldi. 1993-yil 29-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining qarori bilan «14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni» deb belgilandi. Vatanni himoya qilish, uni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash yurtning har bir farzandi vazifasidir. Vatan himoyachilari kunini nafaqat harbiy xizmatchilar, balki ayni vaqtda armiya saflarida o'z burchini o'tab qaytgan vatandoshlarimiz va ertaga xizmatga boradigan ming-minglab navqiron yigitlarning bayrami, deb qabul qilingan. Ushbu bayram munosabati bilan har yili tantanali tadbirlar o'tkaziladi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, qurolli Kuchlar Oliy Bosh qo'mondonining Vatan himoyachilariga yo'llagan tabrigi chop etilib, unda qurolli Kuchlar oldida turgan eng dolzarb vazifalar belgilab beriladi. O'z tarixida har bir millat o'zining qahramonlik davrlarini sharaflaydi, bu bayram esa O'zbekistonning mustaqilligini himoya qilishdagi kuchli armiya va jasur askarlarning mehnatini qadrlash ifodasidir. Har yili 14-yanvarda davlatimiz mudofaa qudrati va Qurolli



Kuchlarining milliy xavfsizlikka qo'shgan hissasi keng jamoatchilikka namoyish etiladi. Bayramning keng nishonlanishi nafaqat armiyani mustahkamlashga qaratilgan, balki vatanparvarlikni kuchaytirish hamdir.

2. Qurolli Kuchlarning Milliy Xavfsizlikdagi Strategik Roli:

Milliy Qurolli Kuchlar davlat xavfsizligini ta'minlashda muhim va bevosita rol o'ynaydi. Hozirgi kunda zamonaviy urushlar va global tahdidlar (terrorizm, kiberhujumlar) sharoitida O'zbekiston armiyasining isloh qilinishi zaruratga aylandi. Qurolli Kuchlarning zamonaviy texnika va uskunalar bilan jihozlanishi, mudofaa strategiyalarining takomillashtirilishi milliy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy kafolatidir. Harbiy islohotlar orqali armiya texnik jihatdan yangilanmoqda, bu esa xavfsizlikka bo'lgan ichki va tashqi tahdidlarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston armiyasi, xalqaro hamkorlik doirasida BMT tinchlikparvar missiyalarida ishtirok etgan holda, jahondagi xavfsizlikni ta'minlashga hissa qo'shayotgani ham buning yaqqol isbotidir.

Harbiy strategiyalarning modernizatsiya qilinishi:

Armiya faoliyatini global standartlarga moslashtirish va texnologik rivojlanish harbiylarimizni kuchaytiradi. Ayniqsa, zamonaviy qurol-yarog' bilan ta'minlanish va harbiy kadrlarni yuqori malakali mutaxassislar sifatida tayyorlash, O'zbekistonning mudofaa salohiyatini oshirish uchun armiyaning texnik bazasi doimiy ravishda yangilanib, harbiy infratuzilma modernizatsiya qilinmoqda. Xususan, razvedka, aloqa va kiberxavfsizlik sohalarida yangi texnologiyalarni joriy etish orqali mamlakatning mudofaa qobiliyati mustahkamlanmoqda.

Qurolli Kuchlar uchun yangi avlod qurollari, dronlar va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish harbiy amaliyotlarda yanada aniq va samarali harakatlarni amalga oshirish imkonini beradi. Bu esa O'zbekistonning ichki va tashqi xavfsizlikni



ta'minlashdagi rolini kuchaytiradi va zamonaviy tahdidlarga tezkor javob qaytarishga imkon yaratadi.

Shu bilan birga, harbiy doktrina va strategiyalarda mintaqaviy xavfsizlik, xalqaro hamkorlik va global tahdidlarga qarshi kurashda tinchlikparvarlik missiyalarining roli oshib bormoqda. O'zbekiston armiyasi nafaqat milliy xavfsizlikni ta'minlash, balki xalqaro maydonda tinchlikni saqlash va barqarorlikni mustahkamlashga ham hissa qo'shmoqdamamlakat mudofaasini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Vatanparvarlik va Jasorat Timsoli:

Qurolli Kuchlarimizning qahramon askarlari o'z fidoyiliklari va jasoratlari bilan butun xalqimiz uchun namuna bo'lib xizmat qiladi. Ushbu xizmat nafaqat qurol bilan himoya qilishni anglatadi, balki har bir fuqaro tinch va farovon hayot kechirishi uchun mardona kurashni ham bildiradi. Vatanparvar askarlar milliy qadriyatlarni saqlash, ularni keyingi avlodlarga yetkazish va davlatning mustaqilligini himoya qilish yo'lida jonbozlik ko'rsatadi. Milliy xavfsizlikni ta'minlash uchun kuchli armiya yetishtirish nafaqat davlat siyosati, balki vatanparvarlikni kuchaytirishga yo'naltirilgan strategik chora-tadbirlar natijasidir. Shu maqsadda vatan himoyachilarining fidoyiligi, ularning mardligi va qahramonligi keng targ'ib qilinadi. Qahramon askarlarning hayot yo'llari yoshlar uchun haqiqiy namuna bo'lib, ularni harbiy xizmatga jalb qilishda muhim o'rin tutadi.

4. Yoshlarni Vatanparvarlik Ruhida Tarbiyalash:

Yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Maktab va oliy o'quv yurtlarida yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash, ularni vatan himoyasiga tayyorlashdagi amaliy mashg'ulotlar milliy g'urur tuyg'usini oshirishda muhim o'rin tutadi. Yoshlarni harbiy-sport musobaqalari va vatanparvarlik tadbirlari orqali vatan himoyasi ruhida tarbiyalash jarayoniga zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish lozim. Buning uchun bolani yoshlikdan vatanga



muhabbatli qilib tarbiyalash lozim va bu bolaga oiladan so'ng bog'chadan singdirilishi kerak. Maktablarda Chaqriuvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanini mukammal va chuqurlashtirilgan holda dars berilishi ham yosh avlodda eng birinchi majburiyati bu vatanga xizmat qilish va bu oliy burch ekanligini anglab yetishiga yordam beradi.

Yoshlar tarbiyasida Qurolli Kuchlarning o'rni:

Vatan himoyachilari kuni yosh avlod uchun harbiy xizmatning ahamiyatini tushuntiruvchi muhim vosita hisoblanadi. Harbiy xizmat nafaqat yurt himoyasi, balki insonning jismoniy va ruhiy kuchini tarbiyalovchi muhim maktab sifatida ko'rilishi kerak. Qurolli Kuchlar bu borada yosh avlod uchun nafaqat moddiy, balki ma'naviy tayanchdir. Shu maqsadda yangi g'oyalar o'ylash kerak. Masalan:

Birinchi navbatda yoshlarni harbiy xizmatga qiziqtirish uchun rag'batlantiruvchi dasturlar yaratish kerak. Harbiy xizmatning ahamiyatini oshirish maqsadida yoshlar uchun motivatsion dasturlarni kengaytirish zarur. Harbiy xizmatni muvaffaqiyatli tamomlagan yoshlar uchun ta'lim imkoniyatlarini yaratish, ular uchun alohida rag'bat tizimini shakllantirish muhimdir.

2. Harbiy va fuqarolik ta'lim tizimini birlashtirish: Harbiy xizmatga jalb qilinadigan yoshlarning tayyorgarlik darajasini oshirish uchun maktab va kollejlarda harbiy ta'lim elementlarini chuqurlashtirish lozim. Harbiy ta'limning umumta'lim tizimiga integratsiyalashuvi yoshlarni jismonan va ma'nan tayyorlashda katta samara beradi. Buning ustiga o'ziga bo'lgan ishonch, g'urur va oriyat kuchayadi va bu aynan bizning yoshlarimizda yo'qolib borayotgan umuminsoniy tuyg'ulardir.

3. Tinchlikni saqlash missiyalarida ishtirokni kengaytirish: O'zbekiston Qurolli Kuchlarini xalqaro tinchlik missiyalarida faol ishtirok etishi orqali xalqaro xavfsizlik tizimida hamkorlikni kuchaytirish va yoshlarni xalqaro miqyosdagi tajriba bilan tanishtirish lozim.



Bu ularda armiyaga bo'lgan fikrni o'zgartiradi va bu kasbni qanchalik ma'suliyatli va sharaflilik ekanligini his qilishga yordam beradi.

Xulosa. Bugungi yoshlarimiz mustaqil Vatanimizning posbonlaridir. Biz navqiron avlod vakillarini barkamol, yetuk kishilar qilib voyaga yetkazsak, ularning har birida or-nomus, milliy g'ururni izchil shakllantirib borsak, Vatanimiz shunchalik qudratli davlatga aylanadi. Vatanni, xalqimiz tinchligi va osoyishtaligini ishonchli himoya qilish, vatanparvar bo'lish, sodiqlik, fidoyilik tuyg'ularini xis etib yashayotgan yoshlarimiz mustaqil yurtimizning kelajagidir. Biz qo'lga kiritgan bunday yutuqlar bilan muqaddas yurtimizda yashayotgan, millati, dini va e'tiqodidan qat'i nazar, har bir inson haqli ravishda faxrlansa arziydi. Shunday ekan yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash orqali kelajakda milliy xavfsizligimizni kafolatlaydigan kuchli va fidoyi avlod yetishib chiqishi zarur.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, 1992.
2. Azizov, A. "O'zbekiston Respublikasining armiyasi: tarixiy va huquqiy asoslari." Tashkent: Sharq, 2015.
3. Akramov, T. "Vatan himoyachilari va ularning jamiyatdagi o'rni." Tashkent: O'zbekiston milliy nashriyoti, 2020.
4. "O'zbekiston armiyasining rivojlanishi va bugungi kundagi vazifalari." Harbiy ilmiy jurnali, 2019 yil, 5-son.
5. Isakov, Sh. "Armiya va davlat xavfsizligi." Tashkent: O'zbekiston harbiy nashriyoti, 2018.
6. Xo'jaev, M. "O'zbekiston mustaqilligi va armiyasining roli." Tashkent: Fan, 2017.
7. <https://islomkarimov.uz/uz/news/14-yanvar-vatan-himoyachilari-kuni-2>